

FUQAROLIK JAMIYATI HAQIDAGI G‘OYALAR EVOLYUTSIYASI

*Navoiy davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi 2 – kurs talabasi
Izbosarova Bannura Husenovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zardo‘shtilik dining muqqadas kitobi “Avesto”da va Sharqda yashab ijod etgan qomusiy olimlarning asarlarida “Fuqarolik jamiyati to‘g‘risi”dagi g‘oyalar tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируются идеи «О гражданском обществе» в священной книге зороастрийской религии «Авеста» и в трудах учёных-энциклопедистов, живших и творивших на Востоке.

Abstract: This article analyzes the ideas of "Civil Society" in the sacred book of the Zoroastrian religion "Avesta" and in the works of encyclopedic scholars who lived and worked in the East.

Kirish

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida fuqarolik jamiyatini qurish eng ezgu g‘oya sifatida amal qilgan. Unga erishish uchun turli darajadagi nazariy qarashlar ilgari surilgan. Bir guruh olimlar fuqarolik jamiyatini qurish g‘oyasi G‘arb tamadduni mahsuli sifatida amaliyotga tadbiq etilmoqda deb hisoblamoqdalar, aslida Sharq mamlakatalari mutafakkirlari ijodida bu masalaga oqilona yondashuv uch ming yil ilgari shakllangan. Ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum davrlarida sharq mamlakatlari yetakchilik mavqeini egallagan. Har qanday fan, o‘z mohiyatiga ko‘ra umumbashariyidir. Dunyo xalqlari katta-kichikligidan qatiy nazaruning rivojiga hissalarini qo‘shtan. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish to‘g‘risidagi g‘oyalar, bilimlar bir yoqlama bo‘rttirish yoki kamsitish noto‘g‘ri yondoshuvdir.

Fuqarolik jamiyati va uning tushunchalari Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotining yorqin namunasi “Avesto” muqaddas kitobida izchil yoritilgan. Manbada avvalo, inson erki, uning ruhiy komilligi masalalari ustivor qo‘yiladi. Masalan “Men yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi ishga shon – shavkat baxsh etaman”¹, deyiladi Yasna (14) kitobida. Axuramazda insonlar o‘rtasida bulayotgan munosabatlar o‘zaro samimiylit, hurmat, beg‘arazlik, yordam va oqibatli bo‘lish zarurligiga, yomon fikrlardan holi bo‘lishiga chaqiradi. Kattaga hurmat va kichikka izzat, sabr – bardosh, halollik, mehr – oqibat va boshqa bir qator tamoyillar borki, bular fuqarolik jamiyati g‘oyasining asosiy tamoyillariga to‘g‘ri keladi.

¹ I. Ergashyev. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T.: “Navruz nashriyoti”, 2005.- 43-bet.

“Ayevsto”da eng muhim masalalardan biri, bu – huquqiy munosabatlarning nazariy jihatdan shakllanganidir. Unda inson hayoti va odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar huquqqa asoslanganligi haqida ma’lumotlar bor. Haqiqat, yaxshi so‘z va maqsad, poklik va ezhgulikka intilish, suv, yer, olov, xonodon va chorvani asrab- avaylash axloqiy burch sanalgan. Inson o‘zining ishlari va fikrlari bilan yaxshilik, yorug‘lik va baxt keltiruvchi, hayot va haqiqat beruvchi oliy tangri – Axuramazdaga yordamchi bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixiy hujjatlar asosida aytish mumkinki, “Avesto”ning “Yasna”, “Visprat”, “Yasht”, “Videvdat” kitoblarida ilgari surilgan huquqiy ta’limotlar Rim huquqidan qadimiyroq hisoblanadi. Boz ustiga, ular keyinchalik tashkil topgan davlatlar siyosiy tizimining shakllanish manbasi bo‘lib ham xizmat qilgan. Shu tariqa “Avesto” yunon mutafakkirlari va Rim huquqshunoslari ijodiga o‘zining har tomonlama mukammalligi bilan ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, inson huquqi, jismoniy va huquqiy shaxs erkinligi, erkak va ayolning tengligi masalasi, ozchilikning huquqiy voyaga yetmaganlar huquqi, vijdon, e’tiqod va din erkinligi, jamoa va guruhlarning huquqi, molhol huquqi, oila huquqi, shartnomalarining majburiylik huquqi, qasddan yoki ehtiyyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyatning turlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, “Avesto”da o‘g‘rilik yoki bosqinchilik farqlari tasniflangan, himoya huquqi va sud ishlarini yuritish hamda tashkil etish kabi boshqa huquqiy prinsiplar ham o‘z ifodasini topgan.²

Avestodagi fuqarolik jamiyatini qurishning birlamchi omili erkak va ayolning teng huquqliligi, oilaning barqarorligini ta’minalash g‘oyasi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga bo‘lib, bugun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58 – moddasi “Xotin -qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minalaydi”³ deb ta’kidlangan. XXI asrda ba’zi mamlakatlarda ayollarning saylash va saylanish huquqi umuman inkor qilinayotgan bir davrda, , “Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ulardan 25 nafari senator, 32 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo‘lib, 1 ming 75 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. O‘nlab opa-singillarimiz “O‘zbekiston Qahramoni”, “O‘zbekiston fan arbobi”, “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston xalq shoiri”, “O‘zbekiston xalq artisti” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlariga, orden va medallariga sazovor bo‘lgan”⁴. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar,

² I. Ergashyev. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T.: “Navruz nashriyoti”, 2005.- 43-bet.

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (mazkur yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). T.: “O‘zbekiston”, 2023.- 36 bet.

⁴ Sh. M. Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: “O‘zbekiston”, 2020.- 462-463 betlar.

minlab fan nomzodlari o‘z bilimi va iste’odi bilan Vatanimiz ravnaqiga astoydil xizmat qilmoqda. 1995 yilda “Oila” kodeksining qabul qilinishi, bir tomonidan yurtimizda ayollarga munosaba va oilaviy qadriyatlar qadimiy ildizlarga egaligini ifodalasa, ikkinchi tomondan fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidagi oqilona siyosatning yorqin ifodasidir.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyo uyg‘onish davri IX-XV asrlarda davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish, davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari tasniflari, ijtimoiy mas’uliyati mezonlarining nazariy jihatlari haqidagi g‘oyalar Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqalar ijodida keng tahlil qilingan.

Xususan, Abu Nasr al-Farobi (873 –950). Forobi ham o‘z bilimini takomillashtirgan hamda keng bilimdonligi, qadim yunon olimlari Arastu (Aristotel) va Aflatun (Platon) ning ko‘plab asralarini mukammal bilganligi bois, o‘z davrida Sharqda al- muallim as-soniy, ya’ni ikkinchi muallim, Sharq Arastusi unvoniga musharraf bo‘lgan. Abu Nasr Forobiyning siyosiy – huquqiy qarashlariga bag‘ishlangan qator asarlar: “Fuqarolik siyosati”, “Fozil shahar aholisining qarashlari” , “Baxt – sodatga erishuv haqida”, “Baxt – sodatga erishish yo‘llari haqida” va boshqa qator risolalarini u yaratgan universal ijtimoiy tizimning yakunlovchi qismi deyish mumkin.

Abu Nasr Forobiyning jamiyat haqidagi ta’limotining o‘ziga xosligi, qolaversa, yangiligi shu ediki, u jamiyat paydo bo‘lishini, uning shakllanishi va rivojalmishi muammolarini odamlarning tabiiy, ijtimoiy – moddiy ehtiyojlari asosida tushintirishga, anglab yetishga harakat qilgan.

Forobi inson qadr – qimmati kamsitilmaydigan jamiyatni orzu qiladi. Shu bois u “ Davlat arbobining hikmatlari” risolasida domiy urushlar va zo‘ravonlikka asoslanuvchi jamiyatniadolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi. Saxovatli davlat hukmdori bo‘lish – deydi chuqr ishonch bilan Forobi – juda qiyin, ma’suliyatli vazifadir. Bunday davlat tepasida har qanday tasodifyi kishilar turmasligi kerak. Saxovatli davlatga boshchilik qilishga da’vogar bo‘lgan kishi tabiatiga ko‘ra boshqaruvga moyil va bunday ma’suliyatli ishga tayyorlangan bo‘lishi kerak. Hukmdor quyidagi talablarga javob berishi kerak. To‘rt muchali sog‘lom, notiq va boshqalarni ham tinglay oladigan, o‘tkir zehnli, o‘ta aqlli, ma’rifatparvar, nafsiyi tiya oladigan, haqiqatparvar, fiqsi – fasoddan yiroqda yuradigan,adolatli, or – nomusli, qalbi tabiatan toza va har qanday tuban ishlardan yuqori bo‘lishi hamda yuksak ishlarga intiluvchan, boylikka, mol – dunyoga qiziqmaydigan, qat’iyatlilik, jasurlik, mardu – matonatlilik namunasi bo‘lishi kerak.⁵

⁵ F. Muhiddinova. O`zbekiston siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixi. Ma`ruza matni. Toshkent, 2006. – 50 bet.

Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048) “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Geodeziya” asarlarida adolatli jamiyat va uning amal qilishi asoslarini shakllantirish haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, jamiyatning paydo bo‘lishiga odamlarning o‘zaro hamkorligi, birga yashashga ehtiyoji va intilishlari sabab bo‘ladi. Adolatli jamiyatni qurish axloqiy qadriyatlarga tayanishi va rivojlantirilishi lozim. Davlat rahbarining asosiy vazifasi aholining turli qatlamlari, kuchlilar va kuchsizlar o‘rtasidagi siyosiy va huquqiy adolat mezonlarini o‘rnatishdadir. Jamiyat podshohga xizmat qilmay, podshoh jamiyatga xizmat qilishi kerak.

Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida xalqlar o‘rtasidagi urushlarni qoralaydi. Uning fikricha, aynan urushlar taraqqiyiga g‘ov bo‘ladi. Shuning uchun ham xalqlar o‘rtasidagi tinchlikni saqlash, davlat boshliqlarining asosiy vazifasi sifatida qarab, hukmdorlar tashqi davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarda elchilarga alohida talabchanlik bilan qarashlarni ta’kidlaydi. Elchilarning insoniylik jihatlari davlatlararo munosabatlarning tayanchi bo‘lishini yozadi.⁶

Abu Ali ibn Sino (980–1037) o‘zining qarashlarida yaxshilik va yomonlik, adolat vaadolatsizlik, rohat va azob – uqubat, iffat, sharm – hayo va benomuslik, sahiylik va baxillik, donolik va johillik, sevgi va nafrat, poklik va nopolik, vafodorlik va bevafolik, kamtarlik va manmanlik, maqtanchoqlik singari odob-axloqqa taalluqli masalalarga alohida e’tibor bilan qaraydi. Allomaning “Axloq haqida risola”, “Burch haqida rsola”, “Nafsni pokiza tutish haqida”, “Hikmat buloqlari” asarlarida kishilar amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladigan xususiyatlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berilgan.

Ibn Sinoning fikricha, yaxshi va yomon xulqlarining hammasi odatdan paydo bo‘ladi. Ayni paytda u odamlarning yaxshi yoki yomon bo‘lishiga hukumat ahllarining ta’siri ham bo‘ladi.⁷

Bu davrda Sharqda ijtimoiy adolat, ma’rifat va tenglik nafaqat nazariy me’yor, balki amaliy hayot me’yori, ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimini topish va jamoa bo‘lib yashashning asosi sifatida tushunilgan, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ma’rifat yo‘li tanlangan bo‘lsa, yevropa ijtimoiy-siyosiy tafakkurida esa nasroniylarning diniy dogmatikasi hukmronlik qilib, diniy va dunyoviy manfaatlar o‘rtasida kurash rivoj olgan.

Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” dostonida davlatni boshqarish amallari, qoidalari va siyosiy - axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishgae’tibor qaratgan. U davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish turlarini hamda shu darajalarga muvofiq sifatlarini tasniflaydi. Jumladan, “Shohlikka da’vogarlar onadan ajib bir iste’dod bilan tug‘iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni

⁶ F. Muhiddinova. O`zbekiston siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixi. Ma`ruza matni. Toshkent, 2006. – 55 бет.

⁷ F. Muhiddinova. O`zbekiston siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixi. Ma`ruza matni. Toshkent, 2006. – 57 bet.

ajratish fitratiga ega bo‘ladilar. Bundaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko‘ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish o‘quvi bilan ham siylaydi”⁸ deb ta’kidlagan.

Adolatli davlat boshqaruvi, uning mukammal nazariy asoslarini yaratish borasida ulkan ilmiy meros qoldirgan o‘rta asrlar mutafakkiri, davlat arbobi **Nizomulmulkning “Siyosatnoma”** asari muhim manba hisoblanadi. U amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash,adolat va insofni oyoq osti qiladigankishilarni davlat ishlariga aralashtirmaslikni, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazoratqilish, itoat, ijro va sifatlari to‘g‘risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Nizomulmulkning “Ko‘pchilik bo‘lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo‘ladi va shunday yo‘l tutish kerak”⁹ degan fikrlari ajdodlarimizning davlat qurilishining adolatli tartibotlariga katta e’tibor berganligidan dalolatdir.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ma’naviy asoslarini o‘rganishda O‘rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik oqimining ahamiyati ham alohida muhim o‘rin tutadi. Tasavvuf garchi islam bag‘rida nish urib, Qur’on va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko‘p hollarda shariat ahkomiga suyangan bo‘lsada, lekin u rasmiy diniy aqidaparastlik va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning ayshu-ishratlarga g‘arb turmush tarzi, talonchilik va manfaatparastlikka zid o‘laroq, mehnatkash xalq noroziliginu ifodalab keldi. Tasavvuf ta’limoti asosidaadolat, haqiqat, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, insof, iyomon, e’tiqod, ilm, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g‘oyalarni targ‘ibot qiluvchi futuvvatga asoslangan bir qancha diniy, siyosiy oqimlar paydo bo‘ladi. Ular jamiyatning axloqsiz unsurlariga g‘oyaviy kuch sifatida qarshi qo‘yiladi

Ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivoji va huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy sharti – qonun ustuvorligi tamoyilini amaliyotda qo‘llash tajribasini Sharqning buyuk davlat arbobi va sarkardasi Amir Temur (1336–1405) har bir ishda siyosatni adolat bilan amalgalashishga va bunda turli vositalar asosida uning izchilligini ta’minalashga erishdi. Ya’ni, adolatga qaratilgan maqsadlarni adolatli vositalar bilan uyg‘unlashtirish asosida davlat boshqaruvining nazariy ta’limotlarini amaliy jihatdan boyitadiki, saltanatda adolatni ta’minalovchi siyosat murvatlari yuzaga keladi. Masalan Amir Temur nafaqat davlat xizmatchilarining qanady sifatga ega bo‘lishini, balki shunday sifatlarni qanday qilib davlat boshqaruviga kelishini ta’minalashning yo‘nalishini ishlab chiqadi. Temur tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo‘sishlarning tashkil etilishi, jang olib borish mahoratlari, davlat xizmatchilarini rag‘batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni

⁸ I. Ergashyev. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T.: “Navruz nashriyoti”, 2005.- 49-bet.

⁹ I. Ergashyev. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T.: “Navruz nashriyoti”, 2005.- 49-bet.

obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllantirishga erishganligidan dalolat beradi. “Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatiimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o‘zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo‘l qo‘ymadim. Ulug‘larini va sharaf-e’tiborli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim”¹⁰.

Ma’lumki, fuqarolik jamiyatini – hayotiyligini va samaradorligini ta’minlovchi – huquqiy davlat doirasidan tashqarida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, Sohibqiron Amir Temuring quyidagi so‘zlari hozirgi zamon bilan hamnafas jaranglaydi: “Tajriba, - deb yozadi u, menga shuni ko‘rsatdiki, din va qonunga tayanmagan hukumat, o‘zining buyuk qudratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo‘lgan na tomi, na eshigi, na panjaralari bor uyga o‘xhatish mumkin. Shuning uchun men o‘z sultanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o‘zim qat’iy amal qiluvchi qonunlar asosida qurdim”¹¹.

Shu nuqtai nazardan, muvafaqiyatli boshqaruv qonuniyatiga ko‘ra, amir Temur rahbarning adolatga tayanishini lozim topgan. Uning fikriga ko‘ra: “Rahbar uchun barcha ishlarda adolatga amal qilishi kerak: u sotilmaydigan va fazilat egasi bo‘lgan odamni vazirlikka tayinlashi lozim, chunki adolatli vazir o‘zi mahdud-rahbar adaolatsizliklarni to‘g‘irlashi mumkin, ammo vazirning o‘zi shunday bo‘lsa, halokat yaqindir”¹². Sohibqiron fikricha, davlat boshqaruvida yana bir muhim qonuniyat – qonun ustuvorligi. “Qat’iy tartib va qonunlarga amal qilishim baxt-saodatim kaliti bo‘ldi”. Bosh qonunlar sifatida diniy ahkomlarni va ular asosida yozilgan fikrlarni bilgan. Buning barchasi buyuk Temur adaolatli va fozil boshqaruvga alohida e’tibor qaratganligini ko‘rsatib turibdi.

Komil insonlar jamiyatini haqidagi g‘oyalar Alisher Navoiy (1441–1501) siyosiy va adabiy faoliyati asosi bo‘lib xizmat qildi. A.Navoiy ideal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum haqidagi qarashlarini o‘zining “Saddi Iskandariy”, “Mahbub ul qulub”, “Payg‘ambarlar va donolar tarixi” va b. asarlarida yoritgan. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum muammolarini faqat adolatli hukmdor boshqarayotgan va qonun ustuvor bo‘lgan mamalkatda amalga oshishi mumkin. Shunday qilib, A.Navoiy uchun adolat va qonun ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Uning konsepiyasida hukumdar shaxsi alohida ahamiyat kasb etadi. Fazilatli va ideal shaxs haqida mulohaza yuritar ekan Navoiy o‘ziga xos insonparvar nazariyani yaratadi. O‘z nazariyasida mutafakkir, bir tomondan hukumdar va bog‘bonni, boshqa tomondan davlat va bog‘ni solishtiradi.

¹⁰ Amir Temur tuzuklari.-T.: “O‘zbekiston”, 2019, 119-bet.

¹¹ Amir Temur tuzuklari. – T.: “O‘zbekiston” 2019, 79-bet.

¹² Amir Temur tuzuklari. T.: “O‘zbekiston” 2019, 109 -bet.

Unga ko‘ra, agar bog‘bon aqlli va mehnatsevar bo‘lsa, uning bog‘i gullab-yashnaydi. Huddi shunday agar mamlakatning aqlli, dono,adolatli, xalqi uchun qayg‘uradigan va uni sevadigan hukumdori bo‘lsa, u rivojlnib farovonlashadi.

Adolatli jamiyatga erishishda nafaqat podoshohning odilligi, balki fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarning adolatli, ma’nан sog‘lom bo‘lishi lozimligiga e’tibor qaratadi.

Xulosa

Antik va o‘rta asr Sharq allomalarining fuqarolik jamiyatigi oid konseptual merosi va nazariy ishlanmalari amaliyotdagi – davlat va jamiyatda hukmron me’yorlarga to‘liq mos kelmasada, biroq ular fuqarolik jamiyati tamoyillarining ob‘ektivlashuvi va uning insoniyat sotsiumining tarixiy taraqqiyotining tarkibiy qismi sifatida tushunilishi uchun mustahkam asos yaratdilar.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. I. Ergashyev. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T.: “Navruz nashriyoti”, 2005.- 568 – bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (mazkur yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). T.: “O‘zbekiston”, 2023.- 118- bet.
3. Sh. M. Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: “O‘zbekiston” , 2020.- 648- bet.
4. F. Muhiddinova. O‘zbekiston siyosiy va huquqiy ta’limotlar tarixi. Ma’ruza matni. Toshkent, 2006. – 418- bet.
5. Amir Temur tuzuklari.-T.: “O‘zbekiston”, 2019, 181-bet.